



UMUMTA'LIM MAK TABI O'QUVCHILARIDA MILLIY MUSIQA CHOLG'ULARIDA IJRO ETISH MAHORATINI SHAKLLANTIRISH

Muallif: Toshtemirov Qobuljon Qubbijonovich¹

Affiliatsiya: Andijon davlat pedagogika instituti dotsent vazifasini bajaruvchisi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14468460>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada uzlusiz ta'limga musiqa ta'limining muammolari, bularni bartaraf etish zarurati, o'quvchilarda milliy musiqa cholg'u asboblarida kuy ijro etishni o'rganishning dolzarbliji va foydali jihatlari, hulosa va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, maktab, san'at, musiqa, cholg'u, qashqar rubob, ijrochilik, to'garak.

"Musiqa insonni yaxshilikka etaklaydi". Demak musiqa san'ati bilan bevosita va bilvosita shug'llanib doimiy aloqada bo'lgan shaxslar jamiyat uchun foydali, ijtimoiy hayotda o'z o'rni ega bo'la oladigan dunyo qarashi keng, ma'naviy sog'lom, ruhan tetik barkamol inson bo'lib etishadi.

Tarixdan ma'lumki zaminimiz madaniyat o'chog'i, ilm – fan rivoj topgan makon sifatida jahonga ma'lum va mashhurdir. Bu zamindan yetishib chiqqan buyuk alloma bobolarimiz jahon fani, me'morchiligi, adabiyot va san'ati rivojiga ulkan hissa qo'shganlar. Musiqa san'ti rivojida ham ularning o'rni beqiyos.

Hozirgi kunda uzlusiz ta'limga o'quvchilarni bilimini, inteliktual salohiyatini rivojlantirishning bir qancha uslublari mavjud. Shu qatorda musiqa ta'limining o'rni alohida ahamiyatga molik. Bunda o'quvchilarni milliy musiqa cholg'ularida ijrochilik mahoratlarini o'zlashtirishi, kelajakda yuksak marralarni egallashiga ko'mak bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 fevraldagagi PQ-112 son qarori ijrosini ta'minlashga hizmat qildi. Unda "umumiyl o'rta ta'lim muassasalarida: o'quvchilarga milliy musiqa cholg'ularidan (dutor, do'mra, doira, tanbur, rubob, g'jjak, nay) kamida bittasida kuy ijro etish ko'nikmalari o'rgatiladi hamda bu haqda ularning ta'lim to'g'risidagi hujjatiga (shahodatnomha) tegishli qayd kiritiladi;

musiqa fani uchun haftasiga belgilangan bir o'quv soati hamda unga qo'shimcha ravishda har hafta milliy musiqa cholg'ularida kuy ijro etish amaliy to'garaklari va fakultativ darslari o'tkaziladi;" - deb belgilangan.

Umumiyl o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarini milliy – ahloqiy qadriyatlar ruhida tarbiyalashning muhim vositalaridan biri sifatida ularni har taraflama yetuk, estetik badiiy did sohibi bo'lib yetishishida milliy musiqa merosining cholg'uchilik san'ati orqali tanishtirib borish va ularda milliy cholg'u asboblarida ijrochilik mahoratlarini shakllantirish, rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Umumta'lim maktabi o'quvchilarini kreativlilik darajasini kengaytirish, inteliktual



qobiliyatini yuqori pog'onalarda bo'lishini, ayniqsa kasbga tayyorlanishida "Musiqa madaniyati" darslari va to'garaklarining ahamiyati juda katta. Bunda musiqa cholg'u asbobida ijrochilik mahoratini o'zlashtirish o'quvchidan (o'rganuvchidan) juda katta sabr toqat, matonat talab etilishi nazarda tutiladi. Bu o'z o'rnila, o'quvchilarni kelajakdagi qizishlaridan kelib chiqib egallashi lozim bo'lgan mutaxasislik sohasida uchraydigan qiyinchiliklarga, duch kelishi mumkin bo'lgan turli hil muammolarga to'g'ri va aniq yechim topa oladigan teran fikrli yetuk kadr bo'lib yetishishiga juda katta ko'mak beradi.

Biror bir musiqa cholg'usini avvalam bor o'quvchilarga o'rgatishda, o'qituvchidan juda katta pedagogik mahorat va kasbga bo'lgan fidoiylik talab etiladi. Chunki o'quvchilarni cholg'u ijrochiligiga qiziqtirishda, ularda dastlabki ijrochilik malakalarini shakllantirishda "igna bilan – quduq qazishdek" murakkablik namoyon bo'ladi.

Muammo shunda-ki: bugungi kunda ayrim maktabgacha ta'llim muassasalari va umumiylar o'rtalama maktablarida o'tkaziladigan turli manaviy – ma'rifiy tadbirlar nazarimda hisobot uchun o'tkazilayotgandek. Sababi uning mazmun – mohiyati keyingi o'ringa o'tib, yaltiroq ko'rinishlar oldingi safda namoyon bo'lmoqda. Bunday muammoni o'z vaqtida to'g'rilamas ekanmiz, oqibatda o'quvchi yoshlarni jahon mumtoz musiqasi va milliy musiqiy merosimizni anglay olmasligiga yo'l qo'ygan bo'lamic. Buning oqibatida o'quvchi yoshlar "ommaviy madaniyat" deb ataluvchi yot g'oya ta'siriga tushib qolishi hech gap emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018 yil Xalqaro maqom festivalining ochilish marosimidagi nutqida - "Maqom ohanglari, maqom ruhi va falsafasi har bir inson qalbidan, avvalo, unib – o'sib kelayotgan yosh avlodimizning ongi va yuragidan chuqur joy olishi uchun bor imkoniyatlarimizni safarbar etishimiz zarur" – deya juda ham muhim fikrni aytib o'tgan. Darhaqiqat biz ushbu yo'riqnomaga erishish uchun eng avvalo uzliksiz ta'llimning quyi pog'onasidan boshlab islohotlarni to'g'ri yo'lga qo'yishimiz kerak. Masalan: Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasida maktabgacha ta'llim muassasalari ta'llim va tarbiya mamuznida akmeologik (insonni o'z taraqqiyoti dinamikasida, takomili hamda hayot faoliyatining turli bosqichlarida o'zidagi eng kuchli qobiliyatlarini namoyon qilishining kompleks masalalari) yondashish orqali tarbiyalanuvchining qaysi kasbga bo'lgan qiziqish va uning imkoniyatlarini kuzatib, individual monitoringini shakllantirib borishini kuzatishimiz mumkin. Buni rivojlantirishda musiqa san'ati cholg'u ijrochiligining o'ziga hos jihatlaridan biri – miya faoliyati boshqaruvini boshqa ijobjiy yuqori darajaga olib chiqishiga yordam berishdir. Vaholang – ki, oqibatda aqliy rivojlanish harakat yo'naliishlari paydo bo'ladi. Musiqiy cholg'ularda ijro etish yosh jihatidan qat'iy nazar, ijrochining miya faoliyati o'zida bir qator turli vazifalarni teng bir vaqtda boshqaradi. Bular: o'ng va chap qo'l harakatlari, asar ritmi, dinamikasi, tempi, musiqiy eshitish kabilalar. Navbatdagi bosqich umumiylar o'rtalama maktabining boshlang'ich sinf "Musiqa" fani darsliklarini kuzatadigan bo'lsak faqatgina qo'shiq kuylash, musiqa alifbosi haqida, cholg'u asboblarini tanishtirishga e'tibor qaratilgan. Bu yaxshi, lekin ushbu darsliklarga milliy musiqa cholg'u asboblarini nafaqat tanishtirish bilan cheklanmasdan, balki ularda kuy ijro etish malakalarini ham shakllantirishga metodik ko'rsatmalar berilishi kerak.

Kun chiqar mamlakat hisoblanmish Yaponiyaning ta'llim jarayonlarini kuzatar ekanmiz, maktabda musiqa darsini olib borilishi va sifatiga alohida e'tibor qaratiladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, musiqa asbobida o'zi sevgan kuyni ijro etishni o'rganish

davomida, o'quvchida kreativ fikrlash, ijodkorlik kabi qobiliyatlar rivojlanadi. Bu esa o'z navbatida, o'quvchilarni boshqa fanlarni ham yaxshi o'zlashtirishlariga o'z tasirini ko'rsatadi.

Muhtasar qilib aytganda bolalarni kelajagini yorqin qilishda musiqa cholg'ularini o'rganish muhimligi bugungi kunda o'z so'zini aytmoqda.

Umumiy ta'lif maktablarida fan to'garaklari qatorida "Cholg'u ijrochiligi" to'garagini ham tashkil etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. "Sinfdan tashqari musiqiy tarbiyaning asosiy maqsadi o'quvchilami iloji boricha ko'proq ommaviy va to'garak ishlariga jaib etib, ularni dunyo qarashini har tomonlama rivojlantirish,

badiiy didini o'stirish, tabiatga, ona-Vatanga bo'lgan mehr muhabbatini oshirishdir." O'quvchilarni "Cholg'u ijrochiligi" to'garagiga jalb qilishda ko'p taraflama hamkorlik yo'lga qo'yilishi kerak. Bunda o'quvchilarning ota-onalari bilan tushintirish ishlari olib borilishi va ular bilan doimiy hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish, maktab ma'muriyati tomonidan to'garak tashkil etilishiga ko'mak berilishi, sinf rahbarlar bilan doimiy aloqada bo'lish, mактабning Yo.I.B.D.O'. bilan to'garak ishlarini muhokama va maslahat ishlarini doimiy amalga oshirish kerak. Bundan tashqari to'garak rahbaridan cholg'u asbobida kuylarni mohirona ijro etish malakalariga ega bo'lishi talab etiladi.

Milliy musiqa cholg'ularidan mактаб o'quvchilariga yaxshi tanish bo'lgani bu – Qashqar rubobidir. O'quvchilar bu musiqiy cholg'uni aksariyat hollarda "dutor", "rubob" deb nomlaydilar. O'quvchilarga cholg'u asbobini tanishtirishda uning kelib chiqish tarixi va nazariyasi haqidagi ma'lumotlarni berib o'tish lozim. "Qashqar rubobi –XI asr saroy musiqachisi Abu Bakr Rubobi haqida yozigan she'riy asarda rubob to'g'risida ayrim misralar keltirilgan. Shundan bilishimiz mumkinki rubob qadimiy cholg'u hisoblanadi". O'sh davr ruboblari hozirgi biz qo'llayotgan qashqar rubobi ko'rinishidan keskin farq qilgan. Lekin negizi bir-biri bilan bog'liqdir. Qadimiy ruboblar besh torli bo'lgan. To'rtta simi ipakdan, bittasi esa kumushdan bo'lgan." Birinchi o'zbek professori, tarixchi, yozuvchi, tarjimon Abdurauf Fitrat o'zining "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" nomli kitobida rubob haqida quyidagi ma'lumotlarni keltirib o'tgan: "Yozuvchisi ma'lum bo'limg'an bir "musiqiy tarixcha"sida rubobning sulton Muhammad Xorazmshoh tomonidan Xorazmda paydo bo'lg'ani yoziladir. Biroq yigirmanchi yillarda Hindistondan keltirganim "Sorang" ismli bir cholg'uning rubobg'a juda o'hshashlig'i meni shoshirg'an edi. So'ngralari qo'llimg'a tushgan Darvesh Aliy "Risolayi musiqiy"sida bu cholg'uning Balhda yasalg'ani, Muhammad Xorazmshoh zamonida Xorazamda rivoj topg'ani ko'rsatiladir." Shu bilan birga ushbu kitobda muallif o'zbek milliy musiqa cholg'u asboblari haqida ilmiy tarixiy ma'lumolar keltirib o'tgan.

Umumiy ta'lif mактаби o'quvchilarini cholg'u ijrochiligiga qiziqtirishda o'zlashtirishi boshqa cholg'u asboblariga nisbatan osonrog'i bu-qashqar rubobi. Qashqar rubobi o'zining jarangdor tembiri bilan ajralib turadi. O'quvchilar chalishni o'rganish paytida quyidagi ko'nimalarni egallaydilar. Dastlab, o'ng qo'lda nohun (mediator) ushlash, chap qo'l barmoqlari bilan tovush pardalarini bosishni, cholg'u asbobini to'g'ri ushslashni o'rganadilar. Shu bilan birgalikda musiqa savodhonligini ham paralel ravishda rivojlantirib boradi.

Cholg'u ijrochiligi uchun bir qancha o'quv adabiyotlari, darlik va o'quv qo'llanmalar mavjud. Masalan: H.Nurmatov, R.Nosirov, Sh.Rahimov, T.Parpiyevlar kabi va boshqa ko'plab mualliflarni aytish mumkin. Ammo bu kabi adabiyot, darslik, o'quv

qo'llanmalarda o'quvchilar uchun cholg'u ijrochilagini o'rganish metodikasi yorqin ochib berilmaganini kuzatish mumki.

Taklif va hulosalar. Eng avvalo uzluksiz ta'limning quyi pog'onasida bolalar uchun milliy musiqa cholg'u asboblarini ijro etishga oid multimediya materiallari, metodik ko'rsarmalar berilgan, ko'rgazmali tarqatma materialarga boy, qiziqarli o'quv – amaliy dasturlarni tayyorlash kerak. Maktabgacha ta'limga muassalarida milliy musiqa namunalaridan foydalangan holda dars va tadbirlarni tayyorlash, o'tkazishni yo'lga qo'yish kerak.

Umumta'limga muktablarida musiqa darsi haftasiga bir soat etib belgilangan. O'quvchilar "Musiqa ta'limi"ni yaxshiroq o'zlashtirishlari uchun haftadagi dars soatini ko'paytirish kerak. Umumta'limga muktablarida musiqa darslari 1-7 sinflarda o'ttiladi. Bu fan uchun juda kam. 8-11 sinflarda kuylash uchun emas, musiqa cholg'u asboblarini ijro etishni o'rgatishga mo'ljallangan dars va to'garaklarni tashkil etish kerak. O'quvchilarni rag'batlantirish, mashq'ulotlar davomida olgan bilimlarini mustahkamlash uchun umumta'limga muktabi o'quvchilari o'rtasida konkurslar tashkil etish tavsiya etiladi.

Hulosa qilib aytganda mamlakatimizda yoshlarga keng imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Ushbu imkoniyatlardan unumli foydalangan holda ularga zamonaviy bilimlar berib, jahon ta'limga standartlari talablariga javob beraoladigan har taraflama yetuk kadrlar etib tayyorlash lozim. Iqtidorli ijodkor o'quvchilarni aniqlashda musiqa darslari va to'garaklarini o'rnni muhim hisoblab individual bilimlar monitoringini tashkil etish kerak.

Tarixda olim bobokalonlarimiz barchasi o'z sohalari qatorida musiqa ilmi bilan shug'illangani barchamizga oydin. Demak biz kelajak avlod vakillari ular ortidan ergashgan holda, musiqa ilmini yaxshi o'zlashtirib, qiziqqan fan yo'nalishlarimizni tanlash va o'rganishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 02.02.2022 yildagi PQ-112-son lex.uz

O'zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro maqom san'ati anjumanining ochilish marosimidagi nutqi . Shaxrisabz 06.09.2018yil. president.uz

Sharipova G, Xodjayeva Z "Musiqa o'qitish metodikasi" Darslik Toshkent-2020. 127-b.

R.Nosirov "Cholg'u ijrochiligi" o'quv qo'llanma Toshkent-2008. 10-b.

Abdurauf Fitrat "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" "Fan" nashriyoti Toshkent-1993 y. 29-b.

Toshtemirov Q.Q. "Mumtoz ashulachilik ijro namunalarining badiiy iodali xususiyatlari va rivojlanish tarixi" Ilmiy maqola. Zamonaviy ta'limga ilmiy-amaliy ommabop jurnali № 6(139) 2024 y.